

## Structure and Form of Theatre Buildings in Uzbekistan

*Xadjayev Abbos Agzamovich*

*D.Sc., Professor.*

*Azimov Axrorbek Akramjon o'g'li*

*National Library named after Kamoliddin Behzod*

*Master's student of the Institute of Painting and Design*

**Annotation.** Today, there are unique architectural monuments around the world, among which theatrical buildings are of particular importance due to their enrichment over time and their well-thought-out construction. This article also provides information that is useful in designing theatrical buildings today.

**Keywords.** teatr, antik, loyiha, sahna, kompleks, tryum.

### **Kirish**

Bugungi kunda teatr binolari arxitekturasi o'zining estetik go'zalligi va funksional ahamiyati bilan alohida ahamiyatga ega. Har bir davrda, xususan, antik davrda ochiq teatrlar, uyg'onish davrida esa chuqur sahnali teatrlar shakllangan. Ushbu maqolada, teatr binolarining tuzilishi va shakl-shamoyili, sahna va tomoshabin komplekslari, shuningdek, zamonaviy teatr binolaridagi loyiha yondashuvlari haqida so'z boradi. O'zbekiston misolida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri kabi yirik teatr binolarining arxitekturaliy yechimlari, milliy an'analar va zamonaviy talablarga mos kelishi o'rganilgan. Maqola teatr binolarining turlarini va ularning turli xonalarini loyihalashdagi muhim jihatlarni ko'rsatishga qaratilgan.

Teatr binolarining tashkil topishi eng qadimgi davrlarga to'g'ri kelib, antik davrda ochiq turdagi teatrlar, uyg'onish davrida esa chuqur sahnali teatrlar paydo bo'lib, xalq teatrlarining turli shakllarini, shuningdek zamonaviy spektakllarni tomoshabinlarga ko'rsatish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Ilk teatr binolariga tomoshabinlar ayovsiz sahnalar gladiatorlar chiqishi, insonlarning xayvonlar bilan olishuvini ko'rish uchun yig'ilishgan. Xozirgi kunga kelib esa teatr san'ati keng rivojlanmoqda.

Teatr binosi xonalari quyidagi komplekslarga bo'linadi:

- Tomashabin kompleksi
- Namoyish kompleksi
- Sahna kompleksi
- Ishlab chiqarish xonalari va rezerv omborlar.

Tomashabin kompleksiga quyidagilar kiradi: kassa vestibuly, kirish vestibuly, taqsimlovchi vestibul, garderob va xakazolar.

Namoyish kompleksi tarkibiga: tomosha zali, avenssena, yon kularlar, sahna osti o'rama dekoratsiyalar seyfi va xakazolar kiradi.

Sahna tuzilishi. Tomashabin zali xamda chuqur sahnaning umumiy ko'rinishi va ichki tuzilishlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu tomosha maydonchasining o'lchamidir. Sahna eni tomosha maydoni kengligi yoki tomoshabin o'rindiqlarini, dekoratsiyalarni yoritish vositalarini joylashtirish va spektaklni



bemalol sahnalashtirish uchun yetarli bo'lgan kenglikdan kelib chiqadi.

Zalning eng to'rida joylashgan dekoratsiyalarning maksimal balandligi ularning ustki qismini zal o'rtasidan ko'rish mumkin bo'lgan darajada belgilanadi va odatga ko'ra u portal balandligidan bir yarim barobar ortiq bo'ladi.

Asosiy sahnadan tashqari spektakl dekoratsiyasini tez almashtirishga yordam uchun quyi sahnalar kularlar va tyum (sahna osti) mavjud.

Sahna kularlarida xarakterlanuvchi platformalar furoplar joylashtirilib, spektaklning keyingi sahnasi uchun ularning usti xajmiy yuzasiga teng xolda yoki uning yarmicha olinadi.

Sahna osti-tryum dekorasiyani tez-tez almashtirib turish uchun sahnada turli effekt xosil qilish uchun ishlatiladi.

Tryumda sahna poli xarakterga keltiriladigan mexanizm joylashtiriladi.

Bunday mexanizmning eng oddiy va universal turi bu –polga o'yib kiritilgan yoki ustiga o'rnatilgan aylanib xarakterlanuvchi doira bo'lib, uning diametri o'z ichiga ikki va undan ortiq sahna ko'rinishlarini bezaydigan xajmiy dekoratsiyalarni sig'dira olishi kerak

Sahna ko'rinishlarini tez-tez o'zgartirib turish uchun asosiy sahnaga qo'shimcha ravishda sahna orqali arerssenadan xam foydalanish mumkin. Arerssena shu bilan birga dekoratsiyalarni yorituvchi vositalarni joylashtirish uchun xizmat qiladi.

Asosiy sahnaning to'rt tomonida (uch yon tomonida va quyida) joylashagan yordamchi sahnalar uning xaratchanligini yanada oshiradi xamda spektaklni sahnalashtirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bera oladi.

Tomashabin zali - teatr binosining kompazision elementi xisoblanadi. Tomashabin zali tomashabinlarga ularning zalga kirish, joylashish, spektaklni tomasha qilish, so'ngra xaf-xatarsiz chiqib ketishga eng qulay shart - sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Zal kompazitsiyasini tashkil etishdagi asosiy omillardan yana biri tomashabin uchun oxirgi qatorning sahna qizil chizig'idan qay darajada uzoqligidir. Tomashabin zalining ikki turi mavjud - ko'p qavatli va anfiteatrli.

Ko'p qavatli zal anfiteatrliiga nisbatan spektaklni ancha yaqqol kuzatish imkoniyatini beradi.

Anfiteatrli zalda parter va anfiteatrda, ya'ni sahna yuzasidan uncha baland bo'lmagan tekislikda joylashtiriladi.

Tomoshabinlarni joylashtirish va evakuatsiya qilish bu xolda uncha qiynchilik tug'dirmaydi.

Tomashabin zalining maqbul yuzasi: bir tomashabinga 0,65 m<sup>2</sup> xavo xajmi bir tomashabinga - 4,5-5 m<sup>3</sup> - drama, 6-6,5m<sup>3</sup> - musiqali teatr uchun. Tomashabin kompleksi tarkibidagi xonalar tomasha boshlangunicha odamlarni ruxan spektaklga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Sahna xonalari esa spektaklni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tomoshabin xonalarini kirish va kassa vetibyullar, asosiy vestibyul, kiyinib – yechinadigan xona, taqsimlovchi foe, tamaddixonona, teatr ma'muriyati xonasi tashkil etadi. Sahna xizmatidagi xonalarni shunday loyixalash va jixozlash zarurki spektaklni tayyorlash va sahnaga qo'shish uchun yetarli shart – sharoitlar bo'lishi kerak. Binoga kirish va undan chiqish uchun mo'ljallangan maydonlar. Ulaning umumiy yuzasi tomashabin zalidagibir o'ringa eng kamida 0,3 m<sup>2</sup> xisobida olinadi. Teatr atrofini ko'kalamzorlashtirishni loyixalash jaroayonida quyidagilar xisobga olinadi.

- Tomoshabinlarining dam olish maydonchalari, maysazorlar:

- Markaziy ko'cha va uylar bilan bog'langan piyoda yo'lakchalari va o'tish joylari:

- O'tish joylari, yo'llar va maydonchalarni sun'iy yoritish tizmi bilan ta'minlash:

- Xo'jalik uchastkasi (unda yordamchi ishlab chiqarish korpusi va shunga o'xshash inshootlarni joylashtirish imkoniyatlarini ko'zlagan xolda):

- Yengil avtomobillar uchun to'xtash maydonchalari.

Qayd etilgan maydonchalar vaziyatga qarab teatr uchaskasidan tashqari yerlarga xam joylashtirish



mumkin, ammo ularning teatr binosidan uzoqligi 300 m dan oshmasligi zarur.

Teatrning ishlab chiqarish xonalari va yordamchi omborlari qoida bo'yicha, teatr binosi yaqinida aloxida korpusda joylashtiriladi.

Bugungi kunda yuqorida keltirib o'tilgan yechimlar asosida ko'plab teatr binolari interyerlari loyihalangan bo'lib, ushbu loyihaviy yechimlar bugungi kungacha yahshi samara berib kelmoqda. Bunga nafaqat butun dunyoda, balki O'zbekistondagi teatr binolari ham misol qilishimiz mumkin.

Ushbu teatr binolaridan biri esa Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri binosi.

Mazkur Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri binosi arxitektor A.Shusev loyihasi asosida 1947 yil qurilgan. Dekaratsiya ishlari K.Jamilov, A.Boltaeva va D.Jo'raevalar tomonidan amalga oshirilgan.

Teatr binosining tarxi milliy an'analarimiz asosida – zali 1400 o'rinli qilib rejalashtirilgan. Teatr inter'eri vestibul, bosh faye, kluarlar, yorug'-keng nisbatlari chiroyli dekorativ ko'rinishga ega, bunda Buxoro, Samarkand, Xorazm, Farg'ona, Termiz va Toshkent arxitektura maktabi ko'rinish aks ettirilgan. A.Navoiyning dekarativ – panoramasi sharq miniaturasi asosida O'zbekistonda xalq rassom Chingiz Axmarov tomonidan ishlagan.

### **Metodologiya:**

Ushbu tadqiqotda teatr binolarining tuzilishi va shakl-shamoyilini tahlil qilish uchun arxitektura va dizayn sohasidagi ilmiy-nazariy manbalar, shuningdek, amaliy tajribalar asosida metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llaniladi:

Kontent-tahlil – teatr binolarining arxitekturaviy yechimlarini o'rganish va turli davrlardagi dizayn tendensiyalarini tahlil qilish.

Taqqoslash usuli – O'zbekiston va dunyo teatrlarining tuzilishini va arxitekturaviy uslublarini solishtirish.

Vizuallashtirish – teatr binolarining turli shakl va tuzilishlarini tasvirlab berish orqali asosiy arxitekturaviy elementlarni ko'rsatish.

Shuningdek, metodologiya doirasida teatr binolarining zamonaviy loyihalarini tahlil qilib, ularning funktsionalligi, estetik ko'rinishi va xalqaro tajribalarga mosligini o'rganish maqsad qilingan.

### **Natija va Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, teatr binolarining arxitekturasi va dizayni davomiy ravishda rivojlanib, zamonaviy talablar va texnologiyalarga moslashgan. Tomoshabinlar zalining joylashuvi va sahna kompleksining funktsionalligi katta ahamiyatga ega. Sahna mexanizmlarining murakkabligi, tez-tez o'zgaruvchan dekoratsiyalarni yaratishga imkon beradi, bu esa spektaklni samarali sahnalashtirishga yordam beradi. O'zbekistondagi teatr binolarida milliy arxitektura an'analari va zamonaviy dizayn elementlari muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri bunday yondashuvlarning yorqin misoli hisoblanadi. Biroq, teatr binolarining dizaynini yanada takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarurati mavjud. Energiya samaradorligini oshirish va qulayliklarni yaxshilash uchun yangi qurilish materiallari va texnologiyalaridan foydalanish kerak.

### **Xulosa**

Teatr binolarining zamonaviy arxitekturasi tomoshabinlar va sahna komplekslari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlaydi, bu esa spektakllarni samarali tashkil etishga yordam beradi. O'zbekistondagi teatrlar, xususan Alisher Navoiy nomidagi teatr, milliy an'analarga asoslanib, zamonaviy dizaynni muvaffaqiyatli birlashtiradi. Yangi texnologiyalar va materiallarni qo'llash teatr binolarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



**References:**

1. Архитектура Советского Узбекистана. Т.Ф. Кадирова, К.В.Бабиевский, Ф.Ю. Турсунов 1972.
2. Архитектурное наследие Узбекистана. Ташкент, изд. Академий наук узбекской ССР. Барханов Н. В. 1979
3. Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент 2007.
4. Кадыро ва Т.Ф. Н апр авленно сть архитектуры и градостроительства Узбекистана в годы незави сим ости (1992-2006 гг.).
5. Ходжаев А. А. et al. IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN JAMOAT BINOLARIDA HARAKATLANISHLARIDAGI MAVJUD TURLI XIL MUAMMOLARNI ANIQLASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 560-565.
6. Sultanova M. et al. Principles of the formation of theater buildings and performances of the 15th-17th centuries //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
7. Sultanova M. F. The formation of art and Architecture of the Ancient Period //European Journal of Arts,(1). – 2023. – С. 22-26.  
Sultanova M. F. The Significance of the Stylistic Solution of Tashkent Cultural and Educational Theater Buildings in Modern Design //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress.

